
№4 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL




2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№4 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI ONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Koyshekenova Tatyana Kenesarievna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: tanya-68@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli tillar tizimiga kiruvchi ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning, ya’ni tarkibida antroponimlar va toponimlar bilan qo‘llaniladigan turg‘un so‘z birikmalarining lingvomadaniy xususiyatlari ochib beriladi.

Tayanch so‘zlar: frazeologizm, onimlar, antroponimlar, toponimlar, kontrastiv tahlil, til, madaniyat, kommunikatsiya.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С ОНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ В АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье раскрываются лингвокультурологические особенности фразеологизмов с онимическим компонентом, то есть устойчивых словосочетаний, содержащих антропонимы и топонимы, в английском и каракалпакском языках, относящихся к разным языковым системам.

Ключевые слова: фразеологизм, онимы, антропонимы, топонимы, контрастивный анализ, язык, культура, коммуникация.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ONYMIC COMPONENTS IN ENGLISH AND KARAKALPAK

Abstract: This article reveals the linguacultural features of phraseological units with onymic components—that is, set expressions containing anthroponyms and toponyms—in English and Karakalpak, which belong to different language systems.

Keywords: phraseological unit, onyms, anthroponyms, toponyms, contrastive analysis, language, culture, communication.

KIRISH

Til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni xalqning milliy-madaniy xususiyatlari bilan uyg‘un holda o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur xususiyatlar, ayniqsa, frazeologiyada yaqqol namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlarning

semantik strukturasi ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularda xalqning hayoti, tarixi, ruhiy va amaliy tajribasi obrazli tarzda aks etadi. Lingvokulturologik tahlil frazeologik birliklarni zamonaviy madaniy o‘zlikni anglash hamda ularning turli diskurslarda qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Kontrastiv yondashuv esa turli tillardagi frazeologizmlarning etnik va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Onim komponentli frazeologizmlarni madaniy kontekstda tadqiq etish til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini, shuningdek, ularda madaniy axborotning ifodalanishi va uzatilishi mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Kontrastiv va lingvokulturologik tahlil usullarining integratsiyalashuvi onim komponentli frazeologizmlarda etnik tafakkur hamda madaniy-lisoniy xususiyatlarni ochib berish imkonini beradi. V.N. Teliyaning ta’kidlashicha, lingvokulturologiyaning asosiy maqsadi turli diskurslarda qo‘llaniladigan til materialida qayta tiklanuvchi madaniy konnotatsiyalarni tavsiflash orqali so‘zlashuvchilarning “kundalik” madaniy-lisoniy kompetensiyasini aniqlash hamda sotsiumning jamoaviy o‘z-o‘zini anglash xususiyatlari haqida ma’lumot berishdan iborat [5; 15]. Buning uchun frazeologizmlardagi madaniy signallarni aniqlash, madaniy konnotatsiya mazmunini ochib berish hamda uning leksik-sintaktik, denotativ-signifikativ va kognitiv parametrlar bo‘yicha tipologiyasini ishlab chiqish zarur. Ushbu tadqiqotda ingliz va qoraqalpoq tillaridagi atoqli otlar frazeologik birliklar tarkibida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi asosiy komponent sifatida tahlil qilinadi.

Frazeologizmlarning milliy xususiyati xalqning moddiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitlari bilan bevosita bog‘liq. Har qanday tilning milliy o‘ziga xosligi uni boshqa tillardagi frazeologizmlar bilan qiyoslash jarayonida yanada aniq namoyon bo‘ladi. Ko‘pchilik frazeologik birliklar o‘zining ichki shaklida muayyan xalqning turmush sharoitlari va tarixiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy belgilarni aks ettiradi. V.N. Teliya ta’kidlaganidek, “tilning frazeologik tarkibida mustahkamlangan obrazlar tizimi dunyoqarashni jamlash uchun o‘ziga xos ‘o‘rin’ bo‘lib xizmat qiladi va ushbu til birlashmasining moddiy, ijtimoiy yoki ruhiy madaniyati bilan qandaydir tarzda bog‘langan, shuning uchun uning madaniy-milliy tajribasi va an’analaridan darak berishi mumkin” [5; 21].

“Frazeologiya shu tilda so‘zlashuvchi xalqning tarixi, madaniyati, an’analari va adabiyoti bilan uzviy bog‘liq. Bu bog‘liqlik tarkibiga atoqli otlar kiradigan frazeologik birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi” [4; 128].

Atoqli otlarning milliy-madaniy xususiyatlari turli belgilar va tushunchalar, stereotiplar, etalonlar hamda ramzlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular asosida dunyoning

lingvistik manzarasi shakllanadi. Dunyo manzarasi insonning o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit haqidagi bilim va tasavvurlari majmuini aks ettiradi. U inson ongidagi “madaniyat qaymog‘i”, ya’ni xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan g‘oya va tasavvurlarni ifodalovchi konseptlarni o‘rganish orqali aniqlanadi. Dunyoning lingvistik manzarasida va xalq madaniyatida inson obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. Atoqli otlar esa shaxslarni nomlash orqali millat portretini modellashtirish, insonning jamiyatdagi faoliyatiga xos jihatlarni, uning jamiyat bilan uzviy bog‘liqligini, shuningdek, jamiyatning inson turmushiga ta’sirini aks ettiruvchi milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlashda muhim vositalardan biri hisoblanadi [2; 19].

TAHLIL VA NATIJALAR

Onim komponentli frazeologizmlarning ahamiyati shundaki, ular nafaqat muayyan xalq nomlash tizimining milliy xususiyatlarini aks ettiradi, balki onomastik birliklar orqali shu xalqning o‘ziga xos urf-odatlari, tafakkur tarzi, tarixi va mifologiyasi haqida ham muhim lingvomadaniy axborot beradi. Onim komponentli frazeologizmlarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning aksariyatida mazkur birliklarning milliy xususiyatlari alohida ta’kidlanadi. Darhaqiqat, boshqa turdagi frazeologik birliklarda, masalan, kasb-hunarga oid, somatik yoki animalistik frazeologizmlarda yaqin qarindosh tillar o‘rtasidagi parallel birliklarni aniqlash nisbatan oson bo‘lsa, atoqli otlar ishtirokidagi frazeologizmlarda bunday parallellik ancha cheklangan. Bunda, albatta, baynalmilal xususiyatga ega bibliyaviy, mifologik va badiiy frazemalar bundan mustasno. Atoqli otlar madaniy dominanta sifatida frazeologiyada milliy-madaniy komponent vazifasini bajarib, muayyan millat yoki til sohiblariga xos xususiyat va belgilarni aniqlash imkonini beradi.

Frazeologizmlar tarkibidagi atoqli otlar ma’nosining madaniy komponenti aktuallashib, xalqning ijtimoiy va ma’naviy hayoti, milliy psixologiyasi, turmush tarzi, urf-odat va an’analari, shuningdek, tarixiy va iqtisodiy taraqqiyotiga xos jihatlarni aks ettiradi. Onim komponentli frazeologik birliklarning xalq milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettirish usullarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga tarkibida jamiyat a’zolariga yaxshi ma’lum bo‘lgan real tarixiy shaxs nomini anglatuvchi atoqli otlar mavjud frazeologik birliklar kiradi. Bunday atoqli otlar davlat arbobi, olim, ixtirochi, monarx yoki aristokrat nomi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq vaqt o‘tishi bilan muayyan tarixiy shaxs haqidagi ijtimoiy xotira zaiflashsa, uning nomi asosida shakllangan obrazli frazeologik birliklar ham asta-sekin faol qo‘llanishdan chiqishi mumkin.

Bunga Annie Oakley frazeologik birligini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu frazemadagi *Annie Oakley* atoqli oti o‘tmishda mashhur bo‘lgan amerikalik sirk aktrisasi nomi bilan bog‘liq bo‘lib, tilda “bepul bilet, kontramarka, ruxsatnoma” ma’nosini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu guruhga mansub ko‘plab frazeologik birliklar bugungi kunda ham qo‘llaniladi.

Masalan: Teddy boy – o‘ziga xos kiyinish uslubi bilan ajralib turadigan yigit;

Prince Albert – “uzun etakli syurtuk”;

John Hancock – “shaxsiy dastxat, imzo”;

a Bloody Mary – “Qonli Meri”;

the Arab of the gutter – ko‘cha bolasi, qarovsiz odam.

Qoraqalpoq tilida esa Záńgi baba – qoramolning piri;

Oysıl qara – tuyalarning piri;

Kerbalanıń shóli – halokat joyi kabi birliklarni misol sifatida keltirish mumkin.

Ikkinchi guruhga tarkibida badiiy manbalar, adabiy asarlar va xalq og‘zaki ijodiga mansub atoqli otlar mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar kiradi. Adabiyot va xalq og‘zaki ijodi tilning frazeologik fondini boyitib, kundalik nutqqa singib ketgan hamda shu tilda so‘zlashuvchi xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘plab obrazlarni yuzaga keltirgan.

Masalan: a Mark Tapley – “har qanday vaziyatda ham kayfiyati tushmaydigan odam” (Ch. Dikkensning *Martin Chuzzlewit* romanidagi qahramon nomi asosida);

a Paul Pry – “boshqalarning ishiga aralashadigan, burnini tiqadigan odam”;

the daughter of Eve (Eve’s daughter) – “Evaning qizi, ayol zoti”;

the Arabian Bird – feniks qushi;

the eye of Greece – “Gretsiyaning ko‘zi”, Afina shahrining obrazli nomlanishi.

Qoraqalpoq tilida Alpamistıń alpınday – juda dovyurak, botir, kuchli va polvon odam;

Edigeniń qábiri – mardlik va vatanparvarlik timsoli;

Qızır Ilyas – mangu suvni ichgan, o‘lmaydigan karomatli odam;

Erejep tentektey – o‘ylamasdan ish qiladigan, xatti-harakatlari tartibsiz, o‘ylamay so‘zlaydigan odam kabi birliklar mavjud.

Uchinchi guruhga an’anaviy va keng tarqalgan erkak hamda ayol ismlari, shuningdek, geografik nomlar ishtirok etgan frazeologik birliklar kiradi. Kundalik so‘zlashuv tilida keng qo‘llaniladigan atoqli otlar ko‘plab frazeologizmlar tarkibiga kirib, ularga o‘ziga xos ekspressiv-emotsional bo‘yoq beradi. Ingliz tilidagi Betty, Tom, Jack, Mary, Edna, Joan kabi antroponimlar hamda Roman, Trojan, Indian kabi onomastik komponentlar, qoraqalpoq tilidagi Gulayım, Barshın, Qoshniyaz, Láyli, Áliy kabi atoqli otlar bunga misol bo‘la oladi.

Masalan: a Roman holiday – xavfli ermak;

a Trojan horse – Troya oti, yashirin xavf yoki qo‘poruvchilik vositasi;

a wooden Indian – indamas, hissiz yoki kamgap odam. Qoraqalpoq tilidagi Qosshım Qoshniyaz birligi qadimgi qoraqalpoq turmushida boylar, botirlar yoki yo‘lovchilar yonida yurib, ularga xizmat qilgan ishonchli yordamchini anglatgan bo‘lsa, hozirgi so‘zlashuv tilida yaqin do‘st, sirdosh yoki hamroh ma’nosida qo‘llanadi. Barshınnıń shashınday (“Barshinning sochidek”) birligi esa juda uzun, qalin va qora sochni ifodalash uchun ishlatiladi.

Frazeologiyaning milliy xususiyatlari, eng avvalo, uning tarkibida milliy-madaniy elementlarning keng namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Frazeologik birliklarning aksariyati milliy zaminda shakllangan bo‘lib, muayyan xalqning ko‘p asrlik aqliy, ruhiy va ijodiy faoliyati mahsuli hisoblanadi.

Lingvomadaniy paradigma asosida amalga oshiriladigan qiyosiy tadqiqot frazeologizmlarda til, madaniyat va kommunikatsiya belgilari orqali universal hamda milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlashga qaratiladi. Aynan ushbu uch asosiy omilning o‘zaro kesishuvida frazeologik birlikning semantik va funksional tabiati namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, frazeologizmlar til belgisi sifatida muayyan voqea-hodisa haqida axborot beradi, voqelikni obrazli tasvirlaydi, unga munosabat va bahoni ifodalaydi hamda emotsional holatni yetkazadi. Frazeologizmlarning semantik tahlili obrazning etimologiyasi, ichki shakli va asosiy metaforik mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, kontekstda yuzaga keladigan va odatiylashgan ma’noni boyitadigan konnotativ xususiyatlarni ochib beradi. Konnotatsiya tushunchasi semantik talqinni turli bilimlar makonidagi til belgisini interpretatsiya qilish darajasiga olib chiqadi. Shu tariqa til semantikasi madaniy semantika bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganilib, til belgisida aks etgan madaniy komponent va madaniy jihatdan belgilangan ma’nolar aniqlanadi.

Ikkinchidan, frazeologizm madaniyat belgisi sifatida xalqning an’analarini saqlaydi hamda frazeologik obraz asosida yotgan kundalik-maishiy, madaniy-ritual, diniy, tarixiy, badiiy, mifologik va boshqa realliklar haqidagi bilimlarni avloddan avlodga yetkazadi. Frazeologizm obrazda turg‘un madaniy tushunchalarni mustahkamlaydi, muayyan voqea-hodisaning ramziga, vaziyatlarning stereotipiga hamda voqelikning ayrim sifatlarini baholash etaloniga aylanadi. Frazeologizm o‘z ichki shaklida insonning dunyoni idrok etishiga xos dastlabki modellarni va frazeologik obrazning barqarorligini ta’minlovchi arxetiplarni saqlaydi. Shu ma’noda til muayyan madaniyatni ilmiy o‘rganishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Sivilizatsiyaning madaniy modellari muayyan darajada ushbu sivilizatsiyani ifodalovchi tilda aks etadi. Shu sababli jamiyat uchun muhim madaniy

tushunchalarni til ramzlari va belgilaridan ajratilgan holda to‘liq anglash mumkin emas [3; 2–3].

Uchinchidan, frazeologizm kommunikatsiya belgisi sifatida turli diskursiv amaliyotlarda ishtirok etadi. Frazeologik birliklar nutq ishtirokchilarining kommunikativ vaziyatni talqin etishiga qarab turli ma’no ottenkalariga ega bo‘ladi. Bilimlar, qarashlar va madaniy tasavvurlar nutqda madaniy konnotatsiyalar shaklida uzatiladi. Natijada frazeologizmning lingvistik, madaniy va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Ayrim frazeologik birliklarning lingvokulturologik-qiyosiy tahlili ingliz va qoraqalpoq tillarida semantik jihatdan yaqin birliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan: since Adam was a boy – Adam atadan qalǵan; Noah’s ark – Nuh payǵambardıń kemesindey; between Scylla and Charybdis – eki ottıń arasında qalıw; (the) Chinese wall – Qıtay diywalı va boshqalar.

Semantik jihatdan yaqin bo‘lgan ushbu frazeologizmlar o‘ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarga ega. Ularning qoraqalpoq tilidagi optimal ekvivalentini aniqlashda yuqorida qayd etilgan uch omil – til, madaniyat va kommunikatsiya darajalaridagi lingvokulturologik tahlil muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, frazeologik birliklarning kelib chiqishi va madaniy ma’nolarini ularning obrazli-motivlashgan semantikasi asosida qiyoslash universal va milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash, shuningdek, frazeologizmlarning madaniy belgilar sifatidagi rolini belgilash imkonini beradi.

Frazeologizmlarni kommunikatsiya belgisi sifatida o‘rganishda ularning pragmatik xususiyatlari ham qiyosiy tahlil qilinadi. Bunda kommunikativ niyat, gapning modal tuzilishi, nutq faoliyatining konvensiyalashgan shakllari, nutq janrlari va qo‘llanishga doir cheklovlar e’tiborga olinadi. Ya’ni muayyan ijtimoiy vaziyatlarda kommunikantlarning maqomi va roliga muvofiq ravishda frazeologik birliklarning o‘rinli qo‘llanishi masalasi tahlil qilinadi.

Frazeologizmlar o‘z obrazlari va komponentlari orqali ularning qo‘llanishiga xos kommunikativ-stilistik registr haqida muayyan “signal” beradi. Frazeologik birliklarning nutqdagi kommunikativ reprezentatsiyalarini qiyoslash esa ularning qo‘llanish sharoitlariga bog‘liq universal va milliy o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

XULOSA

Lingvokulturologik yondashuv turli tillardagi frazeologizmlar semantikasi hajmini aniqlash, ichki shakldagi arxetiplarni, etnik xususiyatlarni hamda konseptual modellarning aksiologik mazmunini ko‘rsatishga imkon beradi. Ushbu yondashuv til, madaniyat va kommunikatsiya darajasidagi universal hamda milliy

oʻziga xoslikni belgilaydi. Onim komponentli birliklarning qiyosiy tahlili ularning shakllanish manbalari, ma'no koʻchish mexanizmlari, madaniy konnotatsiyasi va tarjima muammolarini aks ettirishga xizmat qiladi. Xalq oʻy-fikrining kodlash tizimi boʻlgan bu frazeologizmlar madaniy tushunchalar, tarixiy hodisalar hamda ijtimoiy qadriyatlarni namoyon etadi. Shuning uchun ularning lingvokulturologik va onomastik jihatlarini solishtirish hamda ekvivalentlarini ilmiy tahlil qilish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Добрыднева Е.А. Стилистическая дифференциация фразеологизмов в культурно-национальном аспекте // Семантика языковых единиц: Доклады VI международной конференции. Москва, 1998, т. 1. 248-250 с.
2. Катермина В.В. Личное имя собственное: национально-культурные особенности функционирования (на материале русского и английского языков). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Краснодар: КГУ, 1998. - 19 с.
3. Ковшова М.Л. Сопоставительный анализ фразеологизмов: лингвокультурологический подход. Москва, 1996. с. 2-3
4. Леонович О.А. Очерки английской ономастики. Пособие для преподавателей. - Москва: Интерпракс, 1994. - 128 с.
5. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологически проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры //Фразеология в контексте культуры. - Москва: «Языки русской культуры», 1999. 13-24 с.
6. Xoʻjaev, M. Oʻzbek tilining frazeologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Yusupova B. Qaraqalpaq tilindegi frazeologizmlerdiń fonostilistikalıq analizi. Nókis: “Qaraqalpaqstan” baspası, 2022.

SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI Elov Ziyodullo Sattorovich	6
OILADAGI NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna	14
MUSTAQILLIKNING 35 YILI: ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA XALQCHIL-PROFESSIONAL XIZMATNING YANGI BOSQICHI Tursunova Ozoda Abdullayevna	22
ICHKI ISHLAR ORGANLARI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA YANGI BOSQICH: TA'LIM SIFATI, INNOVATSION YONDASHUVLAR VA DUAL TA'LIM INTEGRATIV MODELI Shermatova Nazokat Safarovna	28
AXBOROT ISTEMOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI (TALABALAR MISOLIDA) Ramazonov Jahongir Djalolovich	34
O'SPIRINLARDA KIBERBULLINGNING PROFILAKTIKASI VA PSIXOKORREKSION IMKONIYATLARI Ibodova Gulimehr Inoyat qizi	46
GLOBALLASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	56
O'SPIRINLIK YOSHI DAVRIDA SUITSIDAL XULQ MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI Sadilloyev Odiljon Oripovich	63
JAZO MUDDATINI O'TAYOTGAN SHAXSLARGA TA'SIR ETADIGAN IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRLAR Manzitov Baxtiyor Tolibovich	72

BIOLOGIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNI PEDAGOGIK KVALIMETRIYA VA ZAMONAVIY PSIXOMETRIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH **Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li**	**79**
TALABALARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI: TIZIMLI, KOMPETENSIYAVIY VA FAOLIYATLI YONDASHUVLAR **Baydjanov Bekzod Xaitboyevich**	**91**
O'QUVCHILARDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI **Axmedova Gavhar Faxriddinovna**	**101**
QASHQADARYO VOHASI HUNARMANDCHILIGI BILAN BOG'LIQ QO'SHIQLAR VA ULARNING ANTROPOLOGIK TAHLILI **Davlatova Saodat Tilovberdiyevna**	**109**
YALDO KECHASI ANANAVIY TAQVIM MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI **Qurbonova Manzila.,** **Bobojonov Shavkat**	**120**
BUXORO MODDIY MADANIY MEROSINI MUZEYLASHTIRISHDA OBIDALARDAGI ASTRONOMIK BELGILARNING O'RNI **Tuksanova Zilola**	**132**
QORAQALPOQ, TURKMAN VA INGLIZ ERTAKLARIDA OBRAZLI NUTQNING MILLIY MODELLARI: FRAZEOLOGIZM, RANG VA MAISHIY TIMSOLLAR **Jepbarova Sayat Kurbanmiratovna**	**138**
INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI ONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI **Koyshekenova Tatyana Kenesarievna**	**144**
LINGVOSEMIOTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI **Nurmatova Sadbarxon Erkinovna**	**151**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/